

HUQUQIY JAVOBGARLIK VA UNING XUSUSIYATLARI

Adashov Hojiboy Husan o'g'li
Samarqand viloyati Qo'riqlash boshqarmasi
Jangovar, kasbiy va jismoniy tayyorgarlik
bo'limi inspektori

Annotatsiya: maqolada shaxslarning jamiyat hayotidagi faol ishtiroki natijasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar va ularning vujudga kelish asoslari, aholining davlat hayotidagi ishtirok etish darajasi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: huquqiy munosabat, huquqiy munosabat obyekti, huquqiy munosabat subyekti, obyektiv huquq, yuridik majburiyat, davlat, jamiyat, shaxs.

Huquqiy munosabatlar - shaxslar o'rtasidagi yuridik aloqa bo'lib, bu ularning o'zaro huquq va majburiyatlarida ifodalanadi. O'zaro huquq va burchsiz huquqiy munosabat vujudga kelmaydi. Huquqiy munosabatlar - bu ijtimoiy munosabatlarning huquq normalari bilan tartibga solinadigan bir qismi bo'lib, ularning subyektlari subyektiv huquq va yuridik majburiyatlarga ega bo'ladi. Demak, huquqiy munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning bir qismi hisoblanadi va uning subyektlari subyektiv huquq va yuridik majburiyatga ega bo'ladi. Huquqiy munosabatlarning vujudga kelish asoslarini ularning asosiy belgilaridan ham bilib olish mumkin. Huquqiy munosabatlarning belgilari:

1. Huquqiy munosabat - ijtimoiy turdagi munosabat. Ya'ni insonlarning ongli ravishda boshqalar bilan aloqaga kirishishi natijasida huquqiy munosabatlar yuzaga keladi. Shunday ekan, huquqiy munosabatlarning muhim sifatlaridan biri sifatida mafkuraviy tabiatga egaligini aytishimiz mumkin. Masalan, kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish, erkin bozor va tadbirkorlik munosabatlariga o'tish g'oyasi ham mafkuradir. Ya'ni mafkuraning asosiy xususiyati, huquqiy munosabatlar, avvalo, kishilar ongi orqali o'tib, so'ng real voqelikka aylanishi.

2. Huquqiy munosabat - huquq normalarining insonlar xulq-atvoriga ta'siri natijasida vujudga keladigan munosabat. Ya'ni huquqiy munosabat o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Uning yuzaga kelishiga insonlarning xulq-atvori, hatti-harakati sabab bo'ladi. Masalan, bir shaxs tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmoqchi. Bunda o'zi ishlab chiqargan mahsulotini sotish uchun odamlar bilan aloqaga kirishadi. Bu ham huquqiy munosabat



hisoblanadi. Demak, inson qanday faoliyat bilan shug'ullanmasin, albatta, bir o'zi kishilar bilan aloqa qilmasdan amalga oshirolmaydi. "Ijtimoiy munosabatlarning huquqiy tartibga solinishini ixtiyoriy hodisa emas, balki qonuniyatli jarayon deb tushunish lozim. Buning sharti shundaki, huquqiy normalar tartibga solinuvchi ijtimoiy munosabatlardan, bevosita huquqiy voqelikdan kelib chiqishi kerak, chunki huquqiy normalar munosabatlarni tug'diruvchi sabab bo'lishdan avval ushbu munosabatlar ichki rivojlanishning oqibati, ularning zaruriy, mohiyatiga oid maxsus belgisi bo'lganligidir".

3. Huquqiy munosabat - bu kishilarning o'zaro subyektiv huquq va yuridik majburiyatlar vositasidagi aloqalaridir. Yuqorida aytib o'tganimizdek, huquq munosabat egalari subyektiv huquq va yuridik majburiyatga ham ega bo'ladi. Masalan, do'konga non xarid qilgani chiqdik. Bu yerda ham huquqiy munosabat amalga oshiriladi. Sotuvchining nonni berishi - majburiyati, pulni olishi esa - huquqi. Yoki aksincha, xaridorning nonni olishi - huquqi. Pulni berishi esa - majburiyati. Demak, huquqiy munosabat subyektlarga muayyan harakatni sodir etish imkonini beradi yoki muayyan vazifani bajarishi shart ekanligini belgilaydi.

4. Huquqiy munosabat - irodaviy munosabatdir. Ya'ni huquqiy munosabatning o'rnatilishi uchun, avvalo, uning subyektlari xohish-istak bildirishi kerak. Ushbu xohish-istak ikki tomonlama va bir tomonlama bo'lishi mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasiga ko'ra, "...Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi". Demak, bunda ikkala tomon ham ixtiyoriy asosda huquqiy munosabatni amalga oshiradi. Bir tomonlama rozilikka misol qilib, jinoyat ishi yuzasidan sudning hukmini aytishimiz mumkin. Bunda sudlanuvchining o'zi bunga rozi bo'lmasa ham jazoni o'tashga majbur bo'ladi.

5. Huquqiy munosabat - davlat tomonidan qo'riqlanadigan munosabatdir. Ya'ni ushbu hatti-harakatlar qonunga zid kelmasligi, boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga putur yetkazmasligi lozim. Ushbu holatni davlatning vakolatli organlari o'z nazoratiga olgan. Huquqiy munosabatlar davlat tomonidan o'rnatilgan huquq normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabat hisoblanadi.



Yuqorida huquqiy munosabatlarning bir qancha belgilarini ko'rib o'tdik. Huquqiy munosabatning vujudga kelish asoslari aytib o'tganimizdek, subyektlarning xoxish-irodasi, ongli faoliyati natijasida vujudga keladi. Masalan, ish beruvchi va xodim o'rtasida mehnat shartnomasi ikkala tomonning ham xoxishiga muvofiq tuziladi. Ularning qonunda belgilangan tartibda faoliyat yuritishini vakolatli davlat organlari nazorat qiladi.

Hozirgi mutlaqo yangi siyosiy iqtisodiy va huquqiy munosabatlarni aks ettiruvchi qonunlar majmuigina biz barpo etayotgan yosh ijtimoiy binoga barqarorlik, demokratik xarakter baxsh etuvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Huquqiy munosabatlar - subyektlar o'rtasida o'rnatiladigan, huquq normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning bir qismi. Uning subyektlari subyektiv huquq va yuridik majburiyatga ega bo'ladi. Uning vujudga kelishi tomonlarning kundalik ehtiyojlarini qondirish jarayonida vujudga keladi. Oldi-sotdi, mehnat shartnomasi, qarz shartnomasi, nikoh shartnomasi va hokazolar huquqiy munosabatlarga misol bo'la oladi.

Uning subyektlari subyektiv huquq va yuridik majburiyatga ega bo'ladi. Uning vujudga kelishi tomonlarning kundalik ehtiyojlarini qondirish jarayonida vujudga keladi. Oldi-sotdi, mehnat shartnomasi, qarz shartnomasi, nikoh shartnomasi va hokazolar huquqiy munosabatlarga misol bo'la oladi.

Huquqiy munosabatlarning to'rtta tarkibiy elementlari mavjud. Bular: huquqiy munosabat subyekti, huquqiy munosabat obyekti, subyektiv huquq va yuridik majburiyat. Huquqiy munosabat subyekti deganda, huquq va muomala layoqatiga yetgan, aqli raso shaxslar tushuniladi. Huquq layoqati kishining tug'ilishi bilan vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi. Ba'zan huquqiy munosabatning vujudga kelishida hali tug'ilmagan subyekt ham asos bo'ladi. U merosxo'r bo'la oladi. Huquqiy munosabat subyektlari delikt layoqatga ega bo'lishlari kerak. Ya'ni aqli raso, belgilangan yoshi yetgan bo'lishi kerak. Kishi to'la muomalaga layoqatli bo'lishi uchun o'n sakkiz yoshga to'lgan bo'lishlari lozim. Ba'zan esa o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullansa, yoki nikohdan o'tsa, sud tomonidan emansipatsiya qilinadi va muomala layoqatiga ega bo'ladi. Jismoniy va yuridik shaxslar huquqiy munosabat subyektlari bo'lishlari mumkin. Huquqiy munosabat obyekti esa - huquqiy munosabatga o'z ta'sirini o'tkazuvchi narsadir.

Ya'ni huquq subyektlarining xatti-harakati nimaga qaratilgan bo'lsa, o'sha narsa huquqiy munosabat obyektini hisoblanadi. Obyekt sifatida buyumlar, narsalarni aytish mumkin. Yuqoridagi misolda non sotib olish jarayonida non huquqiy munosabat obyektini hisoblanadi.

Huquqiy munosabatning uchinchi elementi - bu subyektiv huquq. Ya'ni subyektlarning sodir etishi mumkin bo'lgan xatti-harakati turi va o'lchovi. Xodim o'z mehnati evaziga haq oladi.

Bu uning subyektiv huquqi. Subyektiv huquqqa ega bo'lgan shaxslar o'z huquqlarini amalga oshirsa ham, oshirmasa ham hech qanday salbiy oqibatlarini keltirib chiqarmaydi. Ya'ni bu ixtiyoriylikni kasb etadi. Masalan, mehnat qonunchiligiga ko'ra, xodimlar dam olish huquqiga ega. Mehnat kodeksining 133-moddasiga muvofiq, "Barcha xodimlarga, shu jumladan o'rindoshlik asosida ishlayotgan xodimlarga, dam olish va ish qobiliyatini tiklash uchun ish joyi (lavozimi) va o'rtacha ish haqi saqlangan holda yillik mehnat ta'tillari beriladi". Demak, xodimlar mehnat ta'tiliga chiqish huquqiga ega. Ular o'zlari xohlagan muddatda yillik mehnat ta'tillari olishlari mumkin. Demak, bu subyektiv huquqqa misol bo'la oladi. Yuridik majburiyat esa subyektlarning sodir etishi lozim bo'lgan xatti-harakati turi va o'lchovi⁶. Ya'ni yuqoridagi vaziyatdan kelib chiqib, xodimning mehnat shartnomasida belgilangan vazifalarini bajarishi kerakligini anglatadi. Ya'ni bu ixtiyoriylikni emas, majburiylikni keltirib chiqaradi. Masalan, xodimning ishlab chiqarilgan mahsulotlarni o'z vaqtida mijozlarga yetkazishi, ishga o'z vaqtida kelishi, ish joyida ish kiyimida bo'lishi, korxonaning ichki tartib qoidalarga rioya qilishi bularning barchasi yuridik majburiyat hisoblanadi. Ish beruvchining subyektiv huquqi esa xodimlaridan ishga o'z vaqtida kelishni, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishni talab qilishi, nomunosib xulq-atvoriga ega bo'lgan, korxonada tarbiya-qoidalarga bo'ysunmagan xodimini lavozimidan ozod etishi mumkinligini bildiradi. Yuridik majburiyati esa - ish haqini xodimlariga o'z vaqtida taqdim etishi, xodimning talabiga ko'ra mehnat ta'tillari berishi va shu kabi holatlardir.

Demak, huquqiy munosabatning to'rtta tarkibiy elementlari mavjud ekan. Huquq subyekti, obyektini, subyektiv huquq va yuridik majburiyat. Huquq subyektlari huquqiy aloqaga kirishish jarayonida subyektiv huquq va yuridik majburiyatga ega bo'ladi.



Subyektiv huquq ixtiyoriylikni, yuridik majburiyat esa o'z nomi bilan aytilganidek, bajarilishi shart ekanligini bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X.T.Odilqoriyev Davlat va huquq nazariyasi. Darslik.–Toshkent. “Adolat”, 2018;
 2. Sh.Saydullayev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik Toshkent -2018. 5.
- Z.M.Islomov Davlat va huquq nazariyasi. T.: Adolat, 2007.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

